

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari

Son 11 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 11 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азamat Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

#### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Lutfillova Xamida</i>	<i>Murodillova</i>	Лутфиллаев Ҳамидаилло Муродиллаевич
“ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ		
ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА		12-17
<i>Ezhambergenov Xaitboy</i>	<i>Xamidulla</i>	Эзгамберганов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли
ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ		
ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА)		18-25
<i>Esonov Ziyodbek</i>	<i>Yuldashevich</i>	Esonov Ziyodbek Yuldashevich
QO'QON XONLARI SULOLASINING GENEOLOGIK TAHLILI		26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i>		Mamatqulov Bekzod
O'ZBEKISTONDA XX-ASRNING 20-40-YILLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI		
VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI		32-38
<i>Asadova Ra'no</i>	<i>Baymanovna</i>	Asadova Ra'no Baymanovna
O'ZBEK- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI: HAMKORLIK		
ISTIQBOLLARI		39-42
<i>Saidova Raxima</i>		Saidova Raxima
O'ZBEKISTON VA ITALIYA MUNOSABATLARINING ME'YORIY-HUQUQIY MANBALARI		43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich</i>	<i>Ergasheva Ra'no</i>	Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra'no Muzaffarbek qizi
AFROSIYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI		49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i>		Iriskulov Bekzod Jaxongirovich
TURKİSTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOİR AYRIM		
MULOHAZALAR		56-60
<i>Mirsoatova Sayyora</i>	<i>Turg'unovna</i>	Mirsoatova Sayyora Turg'unovna
QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI		61-66
<i>Luhmonov Shaxzod</i>	<i>Sayfiiddin</i>	Luhmonov Шаҳзод Сайфиддин ўғли
ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО-		
ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР		67-71
<i>Axmedov Bekzod</i>		Axmedov Bekzod
SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O'ZBEKISTONDA QORAKO'LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH		
TADBIRLARI		72-75
<i>Mamatov Jasurbek</i>	<i>Qodirqul o'g'li</i>	Mamatov Jasurbek Qodirqul o'g'li
NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIY HAYOTIDAGI O'RNI		
(UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA)		76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek</i>	<i>Toshpo'latovich</i>	Saidaxmatov Sharifbek Toshpo'latovich
SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY		
YO'NALISHLARI		81-88

*Ибрагимов Раҳмон Зиёдуллаевич*  
 ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИЙ  
 РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ..... 89-93

*Akrorov Botir Bakhodirovich*  
 ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА  
 В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ..... 94-99

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Tursunov Bekmuxammad Omonovich*  
 IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI  
 RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI TAKOMILLASHTIRISH ..... 100-108

*Muxitdinova Kamola Alisherovna*  
 «OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN  
 MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI ..... 109-115

*Madraximov Qaxramon Egamberganovich*  
 INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA  
 ERISSHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA ..... 116-125

*Кетманов Авазбек Маликович*  
 КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ  
 ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 126-134

*Xolmirzayev Abdulkamid Xapizovich*  
 KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI ..... 135-142

*Bahriiddinov Jahongirbek Ravshanjon oglisi*  
 MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING  
 OF GOODS AND SERVICES ..... 143-152

*Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi*  
 MINTAQА TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI  
 TASNIFI ..... 153-160

*Sharipov Komil*  
 MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI ..... 161-170

*Rajabov Navruzbek Azimjonovich*  
 MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI  
 QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ..... 171-179

*Mirzaeva Shirin Nodirovna*  
 SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN  
 UZBEKISTAN ..... 180-187

*Pardayev Rasulbek Islomovich*  
 TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING  
 TAHLILI ..... 188-196

*Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li*  
 SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH  
 XUSUSIYATLARI ..... 197-202

<i>Rahimov Bahromjon Ibrahimovich</i>	
ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ .....	203-209
<i>Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA).....	210-216
<i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i>	
IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN.....	217-221
<i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i>	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI .....	222-227
<i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI .....	228-233
<i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i>	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI .....	234-243
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i>	
SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI .....	244-248
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i>	
XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI .....	249-254
<i>Saburov Jaloliddin</i>	
XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI .....	255-260
<i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i>	
NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OVALARING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	261-265
<i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i>	
FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY .....	266-271
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i>	
MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI .....	272-277
<i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i>	
ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION .....	278-282
<i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i>	
TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI .....	283-287

**11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ ..... 288-295

*Daliyeva Madina*

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 296-300

*Paluanova Khalifa*

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES ..... 301-306

*Равшанов Махмуд*

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО ..... 307-311

*Bekbergenova Gulaim Aijarikovna*

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS ..... 312-318

*Normamatov Farrux Komiljon o'g'li*

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI ..... 319-322

*Gulamova Dilobar Imamkulovna*

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI ..... 323-326

*Xolmuxamedov Baxtiyor*

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI ..... 327-334

*Chorieva Iroda Kurbonboevna*

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ..... 335-339

*Ganiyeva Orzigel Xayriddinovna*

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUksiya: SHAKL VA MAZMUN MASALASI ..... 340-345

*Расулова Камола*

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ..... 346-353

*Омонов Турғунбой*

“СУФУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ ..... 354-358

*Хакбердиева Сайёра Фармоновна*

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ..... 359-364

*Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich*

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 365-370

*Gubaydullin Artur Faridovich*

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S “GOOD OMENS” ..... 371-376

*Abdullaeva Sevara Makhsudalievna*

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 377-381

<i>Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi</i>	
SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK TAHLILI .....	382-385

<i>Yuldasheva Nigora Baxodirovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI .....	386-390

<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i>	
ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHЛИLI .....	391-396

## 12.00.00 – YURIDIК FANLAR

<i>Рузметов Хайрулла</i>	
ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ .....	397-402

<i>Ачилова Лилия Илхомовна</i>	
ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ХУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА .....	403-410

<i>Abdubannayev Umidjon</i>	
AXBOROTGA BO'LGАН INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	411-421

<i>Халиқулов Комолиддин Носирович</i>	
ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА ДАВЛАТ СУВЕRENИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ .....	422-427

<i>Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли</i>	
ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР .....	428-433

<i>Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли</i>	
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИННИНГ ПРОЦЕССУАЛ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ .....	434-439

<i>Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich</i>	
IJTIMOIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJY TAJRIBA .....	440-446

<i>Алиев Асилбек Кадирович</i>	
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ .....	447-451

<i>Нодирахон Абдурахманова</i>	
РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ .....	452-462

<i>Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич</i>	
РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ .....	463-469

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Xusanova Mohira</i>	
OLIY O'QUV YURLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI TAKOMILLASHTIRISH .....	470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i>	
ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛГОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ .....	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>	
TALABALARING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYASI .....	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i>	
CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGGATISH .....	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i>	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI .....	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i>	
MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYASI .....	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i>	
O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV .....	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i>	
TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI .....	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i>	
SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKİSTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI .....	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i>	
MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI .....	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI .....	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI .....	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i>	
THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY .....	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i>	
THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS .....	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i>	
TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i>	
ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI .....	565-568

**Received:** 31 October 2024

**Accepted:** 5 November 2024

**Published:** 15 November 2024

*Article / Original Paper*

## **EXPORT AND IMPORT POTENTIAL IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN (IN THE ANALYSIS OF NAMANGAN REGION)**

**Zakirova Gulnora Mirzalievna,**

Namangan Institute of Engineering and Technology, senior lecturer of the "Economics" department,

e-mail: [gulnorazakirova1968@mail.ru](mailto:gulnorazakirova1968@mail.ru),

**Madaminov Abdulaziz Anvarjon ugli**

Student of Namangan Institute of Engineering and Technology.

**Abstract.** This article presents the perspectives of various economists on the concepts of import and export potential, along with their theoretical analysis. It highlights the significance of Uzbekistan's participation in international trade as part of its integration into the global economy. Particular attention is given to the advantages of exporting goods and services with relative production advantages, including efficient resource utilization, more comprehensive satisfaction of public needs, and increased production volumes through the use of scientific and technological advancements.

**Keywords:** export, potential, international trade, economic development, macroeconomic stability, investment, private sector.

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA)**

**Zakirova Gulnora Mirzalievna,**

Namangan muhandislik texnologiya instituti, "Iqtisodiyot" kafedrasи katta o'qituvchisi,

e-mail: [gulnorazakirova1968@mail.ru](mailto:gulnorazakirova1968@mail.ru),

**Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li**

Namangan muhandislik-texnologiya institute talabasi.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada import va eksport salohiyat tushunchalariga turli iqtisodchi olimlarning qarashlari va ularning nazariy jihatdan tahlili keltirilgan. O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuv jarayonida xalqaro savdoda ishtirok etishining ahamiyati yoritilgan. Unda ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka ega bo'lgan tovar va xizmatlarni eksport qilishning foydalari, ya'ni resurslardan samarali foydalanish, aholi ehtiyojlarni to'liqroq qondirish, ilm-fan va texnika yutuqlaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish kabi omillar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** eksport, salohiyat, xalqaro savdo, iqtisodiy rivojlanish, makroiqtisodiy barqarorlik, investitsiya, xususiy sektor.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N27>

**Kirish.** Har bir davlat global iqtisodiyotga integratsiyalashuv jarayonida o'zining nisbiy ustunlikka ega bo'lgan mahsulot va xizmatlarini eksport qiladi, ichki bozor ehtiyojlari uchun

samarali ishlab chiqara olmaydigan tovar va xizmatlarni esa import qiladi. Xalqaro savdo aloqalari orqali mamlakatlar o'rtasidagi tovar va xizmatlar ayirboshlash ko'lami ortadi, bu esa mavjud resurslardan unumli foydalanish imkonini beradi, aholi ehtiyojlari yanada to'liqroq qondiriladi. Ilm-fan va texnologiya yutuqlaridan foydalanish natijasida ishlab chiqarish hajmi oshadi va eksport salohiyati kuchayadi. Eksport imkoniyatlaridan samarali foydalanish esa ishlab chiqarishga ixtisoslashuvni kuchaytiradi, resurs unumдорлиги va umumiyligi ishlab chiqarish hajmini oshiradi.

“Eksport” so'zi aslida lotincha “exporto” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda “chetga chiqaraman” degan ma'noni bildiradi. Bunda, odatda, bir mamlakatdan bosha mamlakatga u yoki bu xildagi moddiy boyliklar, kapital, bilimlar, ishchi kuchi va hokazolar olib chiqib ketish tushuniladi [1]. Qonunda ikki xil eksport tushunchasi belgilangan: tovarlar eksporti - O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tovarlarni qaytarib olib kelish majburiyatisiz chiqarish (agar qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa); ishlar (xizmatlar) eksporti - O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxslari tomonidan ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish, ularning bajarilish joyi ahamiyatga ega emas. Davlatning iqtisodiy taraqqiyoti uning eksport salohiyati va tashqi savdodagi ijobiy saldosining yuqori darajasi bilan belgilanadi.

Respublikamiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va isloh qilish tashqi savdoni erkinlashtirish va valyuta amaliyotlarini tartibga solish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va xususiy biznesni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi va sanoatda ijobiy natijalarga erishish imkonini yaratib, mamlakatimizda investitsiyaviy va ishbilarmonlik harakatini faollahuvini rag'batlantiradi [2]. Eksport talabining o'sishi, investitsion faollikning kuchayishi va real sektor barqarorligi iqtisodiy o'sishga ta'sir etadi. Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi eksport salohiyatining yuqori bo'lishiga bog'liq. Eksport salohiyatini oshirish makroiqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarish rivojlanishi va investitsiyalarini rag'batlantirishga qaratilgan umumiyligi iqtisodiy siyosatning muhim qismidir. O'zbekiston boy xom-ashyo resurslari va yuqori ishlab chiqarish imkoniyatlari ega, bu esa global mehnat taqsimotida keng ishtirok etish imkonini beradi. Yetakchi tarmoqlarning jahon iqtisodiy aloqalariga integratsiyalashuvi milliy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy omili hisoblanib, bu tarmoqlarni xalqaro bozor talablari asosida takomillashtirish va korxonalarda zamonaviy xo'jalik yuritish hamda boshqaruv tizimini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Davlatimizning jahon iqtisodiyoti va unda ro'y berayotgan jarayonlarda ishtirok etishi iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatib, qo'shimcha imkoniyatlar ochib beradi, tashqi iqtisodiy aloqalarning qayta qurilishi milliy iqtisodiy mexanizmning zamonaviy talablarga moslashishi va shu orqali ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining shakllanishini tezlashtiradi [3]. Bugungi kunda hech kimga sir emaski, jahon bozori yuqori sifatli va jahon andozalariga javob bera oladigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni talab etadi. Shuning uchun hozirgi koronavirus pandemiyasi davrida jahon talablariga mos tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va ularni erkin harakatini kengaytirish, tashqi savdo faoliyatini tartibga solish muhim masala hisoblanadi. Shuni e'tirof etishimiz joizki, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishidagi eng muhim omillardan biri bu eksport. Eksport natijasida kirib kelgan xorijiy valyutalar mamlakatning tashqi qarzi kamayishiga, ichki ishlab chiqaruvchilarni yuqori texnologiya va jihozlar bilan ta'minlashga, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etishda, infratuzilmani rivojlantirishda, shuningdek iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka erishishga hamda mahsulotning raqobatbardoshligi tufayli jahon xo'jaligi iqtisodiy aloqalarida teng huquqli ishtirok etishiga imkon yaratadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda eksport salohiyatidan oqilona foydalanishning eng muqobil yo'lini topish iqtisodiy izlanishlarning dolzarb yo'nalishi bo'lib

qolmoqda. Eksport salohiyati to'g'risida dastlabki tushunchalar klassik iqtisodchi olimlar A.Smit va D.Rikardolarning xalqaro mehnat taqsimoti to'g'risidagi nazariy qarashlarida o'z ifodasini topgan. Ular mamlakatlar o'rtasidagi savdo sotiq munosabatlarining doimiy rivojlanib borishining nazariy asoslarini yaratganlar. Bu olimlar mutloq va nisbiy afzalliklar nazariyasida xalqaro savdoning afzalliklari ustida fikr yuritadi [4]. Ular mamlakat ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda boshqa mamlakatga nisbatan mutloq afzallikka ega bo'lmasada, ammo nisbiy afzallikka ega bo'lishi mumkinligini e'tirof etadilar. Bir mamlakat muayyan mahsulotni boshqasiga qaraganda samaraliroq ishlab chiqara olishi mumkin bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarishdagi mutloq afzalliklar vujudga keladi. Bir mamlakatda biror mahsulotni ishlab chiqarishning muqobil qiymati boshqa mamlakatdagiga qaraganda past bo'lsa, ana shu mamlakatning nisbiy afzalliklari to'g'risida gapirish mumkin. D.Rikardo, hozirda nisbiy afzalliklar qoidalari deb yuritiladigan konsepsiyanı yaratgan. Ushbu afzalliklarni tahlil qilish orqali u shunday xulosa chiqargan: bir mamlakat eksport qiluvchiga nisbatan tovarlarni kamroq xarajatlar bilan ishlab chiqara olsa ham, ularni boshqa mamlakatdan import qilishi mumkin. Bunda D. Rikardo nisbiy afzallikni nazarda tutgan.

Bugungi kunda eksport salohiyati xalqaro savdoda mamlakat raqobatbardoshligini ifodalovchi va ta'minlovchi eng muhim omil sifatida tavsiflanadi. Mamlakatlar xalqaro mehnat taqsimoti tiplariga binoan o'zlarida taqchil resurslarni o'zlashtirib, ehtiyojlarni qondirishning samarali muqobil imkoniyatlarini ishlab chiqish bilan bog'liq amaliy vazifalarni hal etishda eksport salohiyatiga tayanadilar [5]. Ayrim mamlakatlarda ma'lum turdag'i tovarlarni ishlab chiqarish uchun zaruriy resurs mavjud bo'lmasada ular jahon bozori uchun zaruriy tovarlarni eksport qiladilar. Mamlakat eksport salohiyatining ortib borishi tovar ishlab chiqarishda milliy xarajatlarning pasayib borishiga, pirovordida eksport qilinadigan tovar va mahsulotlardan olinadigan daromadning ortishiga sabab bo'ladi. Xalqaro savdoda tovarlarning eksport tarkibi fan-texnika revolyusiyasi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ta'siri ostida takomillashib boradi.

Hozirgi davrda xalqaro savdoning eksport tarkibida qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari yetakchi o'ringa ega bo'lib, uning hissasiga jahon tovar ayriboshlashining 3/4 qismi to'g'ri keladi. Oziq-ovqat, xomashyo va yoqilg'i ulushi faqat 1/4 qismni tashkil qiladi. Bunga asosiy sabab XX asrda fan texnologiya sohasida ulkan yutuqlarning qo'lga kiritilishi, jahon mamlakatlarida ishchi kuchi sur'atining keskin o'sib borishi natijasida mehnat sig'imkorligi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish sur'atining ortib borishi va boshqa bir qator holatlar sabab bo'ldi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon mamlakatlari ishlab chiqargan mahsulotlarning katta qismini tashqi bozorlarda ayribosh qila boshladilar. Bunday holat jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish strategiyasida ulkan o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu o'z navbatida iqtisodiy rivojlanishning ikki xil modelini yuzaga keltirdi [6]. Ayrim mamlakatlar eksportni rag'batlantirish, ayrimlari esa import o'rnini bosuvchi iqtisodiy rivojlanish modelini tanladilar. Ushbu holat jahon iqtisodiyotida "Yangi industrial" mamlakatlarni shakllanishiga sabab bo'ldi. Bu esa jahon xalqaro savdo jarayonlarida eksport hajmini barqaror sur'atda o'sib borishida o'z aksini topdi. Dunyo mamlakatlarining eksport salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan harakatlari natijasida jahon iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlandi. Bugungi kunda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish modelini tanlagan mamlakatlar, xususan Sharqiy Osiyo mamlakatlari yalpi ichki mahsulotida eksport ulushi 60% ga yaqin ko'rsatkichni ifoda etadi. Bunday holat eksport salohiyati tushunchasini ilmiy nazariy asoslarini chuqur o'rganish va uning mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Eksport salohiyati tushunchasini yoritishdan oldin “salohiyat” tushunchasini yoritish maqsadga muvofiq [7]. E.Nabiev va A.Qayumovlar ilmiy izlanishlarida - «...salohiyat (iqtisodiy, ishlab chiqarish, mehnat) ma'lum makon va zamonga bog'liq resurslarni umumlashtirish, jamlash xususiyatini bildiradi». E.Nabiyeva va A.Qayumovlar iqtisodiy salohiyatni mamlakat mehnat salohiyati tushunchasi bilan bevosita bog'liqligini ifoda etadilar. Bundan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki salohiyat mavjud resurs va shart- sharoitlardan samarali foydalana olish imkoniyatidir.“Salohiyat” atamasi “imkoniyat” tushunchasidan ancha keng ma'noni bildiradi. “Imkoniyat”ni harakat va rivojlanish jarayonidagi tarkibiy element yohud xatto uning funksional “salohiyati” sifatida qabul qilish mumkin. “Salohiyat” tushunchasi ma'lum makon va zamon doirasida resurslarni umumlashtirish, jamlash ma'nosini bildiradi. “Iqtisodiy salohiyat” tushunchasi esa jamiyatni moddiy va inson resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini, ulardan foydalanish bo'yicha imkoniyatlar miqyosi bilan baholanadi. Iqtisodiy salohiyatni baholashni tabiiy va inson resurslarini baholashdan boshlash lozim. Chunki, iqtisodni asosini cheklangan resurslar orqali insoniyatning cheksiz ehtiyojlarini optimal qondirish hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarishning asosini hom-ashyo resurslari hamda inson mehnati tashkil qiladi [8].

Eksport salohiyatiga faqat rivojlanish imkoniyati sifatida qarash mazkur tushunchani belgilashda juda tor va bir taraflama yondashuv bo'ladi, chunki uning haqiqiy (real) shaklini hisobga olmaydi. Shu bilan birga, “salohiyat” (inglizcha potential – imkoniyat, kuch, qudrat) so'zining etimologiyasida ham uni muayyan tizimning imkoniyatlarini baholash uchun foydalanish nazarda tutiladi.Tadqiqot jarayonida bir nechta xorij va mahalliy olimlarning “eksport salohiyati” tushunchasiga bergen ta'riflari va nuqtai nazarları o'rganildi [9].

Rossiyalik iqtisodchi olimlar Yu.A. Savinov, V.A. Oreshkin, A.A. Lebedevlar eksport salohiyati tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradilar: «eksport salohiyati - milliy iqtisodiyotning ma'lum sohalarida tashqi bozor uchun mahsulot va xizmatlar yetishtirib berish va ularni keng miqyosida maqbul narxlarda sotish qobiliyatidir».

A.A. Malsevning fikriga ko'ra: “Biror bir hududning eksport salohiyati mazkur mintaqaning aniq bir tashqi bozorga chiqish va uni mustahkamlash imkoniyatlari bo'yicha baholanadigan eksport bazasidir. Mintqa eksport bazasi deganda korxonalarning eksportga ishlab chiqarayotgan tovar va xizmatlar bilan birgalikda shu hududda raqobatbardoshlik bo'yicha jahon standartlariga mos keladigan, ammo ba'zi sabablarga ko'ra xorijga jo'natilmayotgan mahsulotlarning yig'indisidir”. Yondashuvning avzallik tomoni uning eksport salohiyatini mavjud koeffitsientlar bo'yicha miqdoriy baholash belgilab ko'rsatilganligi, berilgan parametrlar tahlili uchun keng bazaning mavjudligi, eksport salohiyatini aniqlash bo'yicha universal metodikaning qo'llanishi, 2 ta kategoriya: “eksport salohiyati” va “eksport bazasi”ning o'zaro bog'liqlik darajasi ko'rsatib berilganligida o'z aksini topgan. Y.A. Tokarevning ta'rificha: “Eksport salohiyati – xalq xo'jaligi va butun iqtisodiyot korxonalari va tarmoqlarining tashqi bozorlarda raqobatbardosh sanoat hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish; chet el fuqarolariga xizmat ko'rsatish, shu bilan birga ma'lum bir tarixiy davrda kapitalni chetga chiqarish bo'yicha qobiliyati majmuasidir”. Ushbu yondashuvda Y.A. Tokarev eksport salohiyatini nafaqat moddiy tovarlarni, balki, nomoddiy ishlab chiqarish – xizmatlarni yetkazib berish ham eksport salohiyatini belgilab beruvchi omil deb qaraydi. Jumladan, kapital eksportini ham e'tiborga oladi. Shu bilan birga olim mazkur tushunchani kengaytirib, makro va mikro darajada ko'rib chiqqan.

O'zbekiston Respublikasining birgina Namangan viloyatida 2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi **315,8 mln.** AQSH dollarni tashkil etgan, jumladan 130,0 mln. AQSH dollarini-eksport, 185,9 mln. AQSH dollarini import tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining saldosi -55,9 mln. AQSH dollarini tashkil qildi. Eksportga yo'naltirilgan maxsulotlarning asosiy tarkibini (qimmatbaxo metallardan tashqari) sanoat maxsulotlari (49,6%), turli hil tayyor maxsulotlar (24,4%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (15,5%) tashkil etgan. Shuningdek, 2023 yilda viloyatda qiymati \$309 mln.ni tashkil etuvchi 351 turdag'i to'qimachilik maxsulotlari dunyoning 42 ta davlatiga eksport qilingan (umumiy eksportning 55,3%).

### TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-iyun mln. AQSHdollarri )



Mashinalar va transport asbob uskunalarini (30,6%), sanoat tovarlari (23,9%), oziq-ovqat va tirik hayvonlar (18,6%) importning asosiy qismini tashkil qilgan. Jumladan, import tarkibida mashinalar va transport asbob uskunalar hajmi \$251mln.ni tashkil etib, 2022 yilning shu davriga nisbatan 12,6 ga ko'paygan. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlarmahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkonberadi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka egabo'ladi. Namangan Viloyatida bu boradaso'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-iyun oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 653,7 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 20,0 mln. AQSH dollariga yoki 3,3%ga ko'paydi. 2024- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 50,6 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,0 % ga ko'paydi.

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasida O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo'shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi. TSA da eksport hajmi 304,0 mln.

**NAMANGAN VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA  
EGA BO'LGAN DAVLATLAR**  
*(2024-yil yanvar-iyun mln, AQSH dollarari)*

Rossiya	XXR	Turkiya	Qozog'iston	Hindiston
TSA – 219,1	TSA – 151,7	TSA – 40,2	TSA – 31,3	TSA – 38,4
Eksport: 185,1 Import: 34,1	Eksport: 19,7 Import: 132,0	Eksport: 11,8 Import: 28,4	Eksport: 11,2 Import: 20,1	Eksport: 0,1 Import: 38,3
 33,5 %	 23,2 %	 6,1 %	 4,8 %	 5,9 %
Qirg'iz Respublikasi	Germaniya	Belarusiya	Fransiya	Koreya Respublikasi
TSA – 49,8	TSA – 20,6	TSA – 13,6	TSA – 6,1	TSA – 10,2
Eksport: 35,3 Import: 14,5	Eksport: 6,2 Import: 14,3	Eksport: 2,7 Import: 10,8	Eksport: 0,0 Import: 6,1	Eksport: 0,2 Import: 10,0
 7,6 %	 3,1 %	 2,1 %	 0,9 %	 1,6 %

AQSH dollariga (2023- yilning yanvariyun oylariga nisbatan 15,5 % ga ko'paydi) va import hajmi 349,7 mln. AQSH dollariga (5,4 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -45,5 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

Namangan viloyati jahoning 72 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya (33,5 %), XXRda (23,2 %), Turkiyada (6,1 %), Qozog'istonda (4,8 %) va Hindistonda (5,3 %) qayd etilgan.

**Xulosa.** Maqola davlatning xalqaro savdoda faol ishtirok etishining, nisbiy ustunliklarga asoslanib eksport va import orqali, resurslarni samarali ishlatalish, aholi hayot sifati va texnologik taraqqiyotini oshirishdagi muhim rolini ta'kidlangan. O'zbekistonning global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvni iqtisodiy barqarorlikni mustahkash va o'sishni tezlashtirishga yordam beradi. Tadqiqot eksport salohiyatini rivojlanadirish makroiqtisodiy barqarorlikning muhim jihatni bo'lishi bilan birga, investitsiya, sanoat ishlab chiqarish va xalqaro arenada raqobatbardoshlikni oshirish uchun zarur ekanligini ko'rsatadi. O'zbekistonning resurs imkoniyatlariga mos keladigan sohalarda eksport salohiyatidan foydalanish, barqaror o'sishga erishish va xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini yaratadi, bu esa mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi o'rnnini mustahkamlashga yordam beradi.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. To'xtayev, I. A., & Rahimov, S. (2019). O'zbekiston iqtisodiyotida tashqi savdo siyosati.
2. Shodmonov, Sh. R., & Ochilov, S. O. (2018). Makroiqtisodiyot va xalqaro savdo siyosati.
3. Mamatov, A. (2020). O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda eksport salohiyatining ahamiyati.
4. Qudratov, M. Q. (2018). O'zbekistonda importni diversifikatsiyalash va tashqi savdo balansini yaxshilash strategiyalari.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hisobotlari. O'zbekistonning tashqi savdo ko'rsatkichlari va rivojlanish yo'naliishlari (yillik hisobotlar)
6. Sayfullayev, A. A. (2017). O'zbekistonning eksport salohiyati va uning rivojlanishi
7. Norqulov, D. N. (2021). O'zbekiston iqtisodiyotining globallashuv sharoitida tashqi savdo salohiyati

8. Ergashev, N. M. (2015). Tashqi iqtisodiy faoliyat va uning rivojlanish yo'nalishlari.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. O'zbekistonning tashqi savdo ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlar.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**N<sup>o</sup> 11 (4) - 2024**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**" электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масьулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).